

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARINING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIVAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	222
I.R.Sabirjanova	
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY	228
Palvanbayev Umidbek Uktam o'g'li	
MINTAQAVIY TURISTIK KLASTERLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELII	233
Kazokova Dilnoza Bobirovna	
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	238
G'iyosov Ilxom Karimovich	



O'ZBEKISTONDA CAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI	246
Xaitova Gulmira Matsalayevna	
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	253
Sangirova Umida Ravshanovna	
МЕТОДЫ СИСТЕМ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	259
Н. М. Эргашева	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	265
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O'RNI.....	271
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТАДЖИКИСТАНА ЗА 35 ЛЕТ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ	276
Икромни Нуриддин Киём	
Раҳматзода Далер Талбак	
YANGI O'ZBEKISTONDA GILAMCHILIK SANOATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI	283
Farog'at Xo'jabekova	
MINTAQADA AGROTURIZMNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: XALQARO MODELLAR VA O'ZBEKISTON UCHUN INNOVATSION MEXANIZMLAR.....	288
Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li	



UDK 338.48:631.1(575.1 MINTAQADA AGROTURIZMNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: XALQARO MODELLAR VA O'ZBEKISTON UCHUN INNOVATSION MEXANIZMLAR

Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistenti

Email: aliqulovhumoyunforever@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida agroturizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda Italiya, Avstriya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda shakllangan agroturizm modellari qiyosiy tahlil qilinib, ularning iqtisodiy, institutsional, ijtimoiy va ekologik xususiyatlari aniqlangan. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, agroturizmni faqat turistlarni qishloq hududlariga jalb qilish vositasi sifatida emas, balki qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, hunarmandchilik, gastronomiya, madaniy meros, ekologiya va raqamli marketingni yagona qiymat zanjiriga birlashtiruvchi kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida shakllantirish yuqori samaradorlik beradi. Italiyada agroturizmning maxsus huquqiy tartibga solinishi va "Agriturismo Italia" sifat tizimining joriy etilishi, Avstriyada esa fermer xo'jaliklarini sifat sertifikatlashi, mahalliy mahsulotlar va autentik qishloq tajribasi bilan bog'lash amaliyoti alohida ahamiyatga ega. Maqolada O'zbekiston, xususan, Qashqadaryo viloyati sharoitida "fermer xo'jaligi – turistik xizmat – mahalliy mahsulot – gastronomiya – hunarmandchilik – raqamli platforma" integratsiyasiga asoslangan hududiy agroturizm modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: agroturizm, mintaqaviy rivojlanish, qishloq turizmi, fermer xo'jaligi, xorijiy tajriba, barqaror turizm, gastronomik turizm, raqamli marketing, mahalliy mahsulot, Qashqadaryo viloyati.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты развития агротуризма как одного из перспективных направлений регионального экономического развития. В исследовании проведён сравнительный анализ моделей агротуризма, сформировавшихся в Италии, Австрии, Испании и других странах, а также выявлены их экономические, институциональные, социальные и экологические особенности. Зарубежный опыт показывает, что формирование агротуризма не только как инструмента привлечения туристов в сельские территории, но и как комплексного экономического механизма, объединяющего сельское хозяйство, пищевую промышленность, ремесленничество, гастрономию, культурное наследие, экологию и цифровой маркетинг в единую цепочку создания стоимости, обеспечивает высокую эффективность. Особое значение имеют практика специального правового регулирования агротуризма и внедрения системы качества «Agriturismo Italia» в Италии, а также опыт Австрии по интеграции фермерских хозяйств с системой сертификации качества, местными продуктами и аутентичным опытом сельской жизни. В статье предложена региональная модель агротуризма для условий Узбекистана, в частности Кашкадарьинской области, основанная на интеграции «фермерское хозяйство – туристическая услуга – местный продукт – гастрономия – ремесленничество – цифровая платформа».

Ключевые слова: агротуризм, региональное развитие, сельский туризм, фермерское хозяйство, зарубежный опыт, устойчивый туризм, гастрономический туризм, цифровой маркетинг, местный продукт, Кашкадарьинская область.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of agritourism development as a promising direction of regional economic development. Comparative analysis of agritourism models in Italy, Austria, Spain and other countries was conducted. The study demonstrates that agritourism should not be considered merely as a mechanism for attracting tourists to rural areas, but rather as an integrated economic system connecting agriculture, food production, handicrafts, gastronomy, cultural heritage, environmental protection and digital marketing. The Italian model demonstrates the importance of legislative regulation, quality certification and territorial branding, while the Austrian model emphasizes farm-based hospitality, authenticity, local products and sustainability. Based on international experience, the article proposes an integrated regional agritourism development model for Uzbekistan, particularly for Kashkadarya region.

Keywords: agritourism, regional development, rural tourism, farm tourism, international experience, sustainable tourism, gastronomy, digital marketing, local products, Kashkadarya.



KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlash faqat sanoat yoki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish bilan cheklanib qolmay, mavjud tabiiy, madaniy, tarixiy va agrar resurslardan kompleks foydalanishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, agroturizm qishloq hududlarini diversifikatsiya qilish, aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiy faollikni kuchaytirishning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

FAO ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yigirma yil davomida agroturizm, ayniqsa, O'rta Yer dengizi mamlakatlarida qishloq hududlarini jonlantirish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish vositasi sifatida sezilarli darajada kengaygan. Tashkilot agroturizmni qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat savdosi, turizm va madaniy meros kesishgan nuqtada shakllanuvchi ko'p tarmoqli tizim sifatida baholaydi.¹

Agroturizmning asosiy xususiyati shundaki, turist oddiy iste'molchi emas, balki qishloq xo'jaligi faoliyatining bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Masalan, turist uzum yig'im-terimida qatnashishi, asal ishlab chiqarish jarayonini kuzatishi, chorvachilik faoliyati bilan tanishishi, milliy taom tayyorlash jarayonida ishtirok etishi yoki fermer xo'jaligida tunashi mumkin.

Bunday yondashuv turistik xizmatning iqtisodiy qiymatini oshiradi. Chunki turist nafaqat joylashtirish xizmatiga, balki oziq-ovqat, transport, ekskursiya, hunarmandchilik mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqa xizmatlarga ham xarajat qiladi.

OECDning 2026-yilgi tahlillarida ham turizm qishloq va chekka hududlarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy daromadlarni oshirish hamda qishloq merosini saqlash vositasi bo'lishi mumkinligi qayd etilgan.²

O'zbekiston sharoitida mazkur yo'nalish ayniqsa dolzarb. Chunki mamlakatning ko'plab hududlarida qishloq xo'jaligi, tog'li va tabiiy landshaftlar, milliy taomlar, hunarmandchilik, qadimiy urf-odatlar va tarixiy-madaniy meros agroturizm uchun zarur resurs bazasini shakllantiradi.

Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati agroturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Viloyatning Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qamashi kabi hududlarida tabiiy va ekoturistik salohiyat mavjudligi davlat organlari tomonidan ham qayd etilgan.³

2026-yil boshida Qashqadaryo viloyatidagi turizm salohiyatini o'rganish doirasida Shahrisabz tumanida 500 gektarlik agroturizm zonasini tashkil etish loyihasi ham ko'rib chiqilgani ushbu yo'nalishning amaliy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.⁴

Shunday ekan, asosiy masala agroturizmni "qishloqda dam olish" shaklida emas, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli sifatida shakllantirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agroturizm qishloq xo'jaligi va turizmni o'zaro integratsiyalash orqali qishloq hududlarida qo'shimcha daromad manbalarini yaratish, bandlikni oshirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda agroturizm asosan fermer xo'jaliklarining turistik faoliyatga jalb qilinishi, daromadlarni diversifikatsiya qilish hamda qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

Phillip, Hunter va Blackstock agroturizmni qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan turistik faoliyat sifatida tavsiflab, uning qishloq turizmining boshqa shakllaridan farqli jihatlarini asoslab bergan.⁵ Tew va Barbieri tadqiqotlarida agroturizm fermer xo'jaliklari uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lib, xo'jalik faoliyatini diversifikatsiya qilishga xizmat qilishi ta'kidlangan.⁶ Barbieri esa agroturizmni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni uyg'unlashtiruvchi barqaror rivojlanish vositasi sifatida baholaydi.⁷

Xorijiy tajribani o'rgangan tadqiqotlarda Italiya va Avstriya modellari alohida ahamiyatga ega. Italiyada agroturizmni huquqiy tartibga solish, sifatni sertifikatlash va fermer xo'jaliklarini turistik xizmatlar bilan integratsiyalash tizimi shakllangan.⁸ Avstriyada esa fermer xo'jaliklarida turistlarni joylashtirish, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish, ekologik yondashuv va autentik qishloq tajribasini yaratishga katta e'tibor qaratiladi.⁹

1 FAO. *Inter-country learning dialogue on agritourism as opportunity for agrifood systems transformation*. 2024.

2 OECD. *OECD Tourism Trends and Policies 2026*. OECD Publishing, 2026.

3 Qashqadaryo viloyati hokimligi. Turizm – eng tez daromad keltiruvchi soha. 2024.

4 O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. Qashqadaryo viloyatida turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan loyihalar. 2026.

5 Phillip S., Hunter C., Blackstock K. A typology for defining agritourism // *Tourism Management*. – 2010. – Vol. 31(6). – P. 754–758.

6 Tew C., Barbieri C. The perceived benefits of agritourism: The provider's perspective // *Tourism Management*. – 2012. – Vol. 33(1). – P. 215–224.

7 Barbieri C. Assessing the sustainability of agritourism in the United States // *Journal of Sustainable Tourism*. – 2013. – Vol. 21(2). – P. 252–270.

8 Ministero dell'Agricoltura, della Sovranità Alimentare e delle Foreste. *Agriturismo Italia*.

9 Quendler E., et al. Austria under the auspices of global agritourism values: a narrative literature review // *Frontiers in Sustainable Tourism*. – 2024.



So'nggi tadqiqotlarda agroturizmning ekologik barqarorlik, mahalliy iqtisodiyot va qishloq aholisi farovonligiga ta'siri ham keng o'rganilmoqda. Jumladan, Grillini va boshqalar agroturizmni qishloq xo'jaligidagi barqaror amaliyotlar va mahalliy jamoalar bilan o'zaro aloqalar bilan bog'laydi.¹⁰ Martinus, Boruff va Nunez Picado esa agroturistik tajribada autentiklik, turistning faol ishtiroki va hududning o'ziga xosligi muhimligini ko'rsatgan.¹¹

O'zbekistonda ham agroturizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar shakllanmoqda. Togaymurodov, Roman va Prus Samarqand viloyati misolida agroturizmning qishloq xo'jaligi daromadlarini diversifikatsiya qilish va qishloq hududlarini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilgan.¹² Aktamov tomonidan O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari va istiqbollari o'rganilgan.¹³

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, agroturizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari xorijiy tadqiqotlarda yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, xorijiy tajribani O'zbekistonning alohida hududlari sharoitiga moslashtirish, xususan, Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jaligi, tabiiy, gastronomik va madaniy salohiyatini yagona agroturistik modelga birlashtirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda xorijiy tajribaning samarali jihatlari Qashqadaryo viloyati sharoitiga moslashtirish va agroturizmni hududiy iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini agroturizmni xorijiy tajriba asosida rivojlantirish, xalqaro modellarni qiyosiy o'rganish hamda ularni O'zbekiston hududlari sharoitiga moslashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik tahlil, umumlashtirish va SWOT-tahlil usullaridan foydalanildi.

Xalqaro tajribani o'rganishda Italiya, Avstriya, Ispaniya kabi mamlakatlarda shakllangan agroturizm modellari tahlil qilinib, ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari, fermer xo'jaliklari faoliyati bilan turizmni integratsiyalashuvi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari qiyoslandi.

Tadqiqotning axborot bazasini agroturizm va qishloq turizmini rivojlantirishga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, O'zbekiston Respublikasining turizm va qishloq xo'jaligiga oid normativ-huquqiy hujjatlari hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tashkil etdi. O'zbekiston sharoitida agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlarini baholashda hududlarning tabiiy, iqtisodiy, infratuzilmaviy va madaniy salohiyati hisobga olindi.

Tadqiqot davomida SWOT-tahlil orqali O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda potensial tahdidlar aniqlandi. Olingan natijalar asosida xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish, raqamli platformalardan foydalanish, fermer xo'jaliklari va turizm subyektlari hamkorligini kuchaytirish hamda innovatsion mexanizmlarni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agroturizmni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning tajribasi O'zbekiston hududlari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Xususan, Italiya, Avstriya va Ispaniyada agroturizm qishloq xo'jaligi faoliyatini turistik xizmatlar bilan integratsiyalash, mahalliy mahsulotlarni targ'ib qilish va qishloq aholisi daromadlarini oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida shakllangan. Mazkur mamlakatlar tajribasining umumiy jihati davlat ko'magining mavjudligi, fermer xo'jaliklarining turistik faoliyatga jalb qilinishi va hududiy brendingning rivojlanganligidir.

Italiya tajribasida agroturizm fermer xo'jaliklari faoliyati bilan bevosita bog'langan bo'lib, turistlarga qishloq hayoti bilan tanishish, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini tatib ko'rish va ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Avstriyada esa ekologik toza muhit, tog'li hududlar va oilaviy fermer xo'jaliklaridan turizm maqsadlarida foydalanish keng tarqalgan. Ispaniya tajribasida esa qishloq turizmi mahalliy madaniyat, gastronomiya va tabiiy resurslar bilan uyg'unlashtirilgan. Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash hududlarning turistik jozibadorligini oshirish imkonini beradi.

Xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, agroturizm rivojlangan mamlakatlarda bir xil model asosida emas, balki hududning iqtisodiy va tabiiy xususiyatlariga mos ravishda shakllangan (1-jadval).

10 Grillini G., et al. Differences in sustainability outcomes between agritourism and non-agritourism farms //Journal of Rural Studies. – 2023.

11 Martinus K., Boruff B., Nunez Picado A. Authenticity, interaction, learning and location as curators of experiential agritourism //Journal of Rural Studies. – 2024.

12 Togaymurodov E., Roman M., Prus P. Opportunities and directions of development of agritourism: Evidence from Samarkand Region // Sustainability. – 2023. – Vol. 15(2).

13 Aktamov O.A. Agritourism development in Uzbekistan: Insights from science and literature //Green Economy and Development. – 2024.



Mamlakat	Asosiy model	Kuchli jihati	O'zbekiston uchun olinadigan tajriba
Italiya	Fermer xo'jaligi + turizm	Huquqiy tartibga solish, sertifikatlash	Agroturizmni alohida faoliyat sifatida tartibga solish
Avstriya	Farm stay + ekologiya	Sifat va autentiklik	Sifat sertifikatsiyasi va fermer mehmonxonalari rivojlantirish
Ispaniya	Qishloq turizmi + gastronomiya	Hududiy brending	Mahalliy taom va mahsulotlarni turistik brendga aylantirish
Fransiya	Fermer xo'jaligi + gastronomiya	Mahalliy mahsulot	"Fermerdan dasturxongacha" tamoyili
Sloveniya	Yashil turizm	Ekologik standartlar	"Yashil agroturizm" sertifikati
Portugaliya	Qishloq merosi + turizm	Madaniy meros	Qishloq madaniyati va turizmni integratsiyalash

Italiya tajribasi. Italiya agroturizmni institutsional jihatdan rivojlantirish bo'yicha eng muhim tajribalardan biriga ega. Italiyada agroturizm faoliyati 2006-yil 20-fevraldagi 96-sonli milliy qonun bilan tartibga solingan. Ushbu qonun agroturizmning shakllari va maqsadlarini belgilab, qishloq merosi va hududiy resurslardan foydalanishni nazarda tutadi. 2013-yildan boshlab esa "Agriturismo Italia" sektoral belgisi va agroturistik xo'jaliklarni besh toifaga ajratuvchi tasniflash tizimi joriy qilingan. Bu tajribadan O'zbekiston uchun eng muhim xulosa — agroturizmni oddiy turistik xizmat emas, balki maxsus tartibga solinadigan iqtisodiy faoliyat sifatida shakllantirish zarurati. Italiya modelida fermerning asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lib qoladi, turizm esa unga qo'shimcha daromad manbai sifatida xizmat qiladi. Demak: Qishloq xo'jaligi → agroturizm → qo'shimcha daromad → yangi ish o'rinlari → hududiy rivojlanish.

Avstriya tajribasi: sifat, autentiklik va ekologik barqarorlik. Avstriya tajribasi O'zbekiston uchun ayniqsa muhim, chunki bu mamlakatda fermer xo'jaligi turist uchun nafaqat yashash joyi, balki to'liq turistik tajriba manbaiga aylantirilgan. Avstriyada "Farm Holidays" tizimi doirasida fermer xo'jaliklari sifat bo'yicha sertifikatlanadi. Turistlarga hayvonlarni boqish, tuxum yig'ish, o'simlik va dorivor giyohlarni o'rganish, non yopish, qishloq xo'jaligi ishlarida qatnashish kabi faoliyatlar taklif qilinadi. Bundan tashqari, ekologik xo'jaliklarda organik ishlab chiqarish, mahalliy mahsulotlardan foydalanish va resurslardan samarali foydalanishga katta e'tibor beriladi.

Avstriya tajribasining asosiy formulasi:

"Fermer xo'jaligi + mehmondostlik + mahalliy mahsulot + ekologiya + ta'limiy tajriba".

Bu model Qashqadaryo uchun ham juda mos. Masalan, Kitob yoki Shahrisabz tumanidagi fermer xo'jaligida turist:

- bog'ni tomosha qiladi;
- meva teradi;
- milliy non yopadi;
- mahalliy taom tayyorlaydi;
- chorvachilik bilan tanishadi;
- qishloq uyida tunaydi;
- mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotib oladi.

Natijada turistning hududda qolish muddati uzayadi va uning xarajatlari bir nechta mahalliy subyektlar o'rtasida taqsimlanadi. Xorijiy tajribaning asosiy umumiy jihatlari. Tadqiqot natijasida rivojlangan agroturizm modellari quyidagi umumiy xususiyatlar aniqlandi:

1. Agroturizm qishloq xo'jaligidan ajratilmaydi. Turizm fermer xo'jaligining asosiy faoliyatini almashtirmaydi, balki unga qo'shimcha qiymat yaratadi.

2. Mahalliy mahsulot asosiy turistik resursga aylanadi. Meva, sabzavot, go'sht, sut, asal, vino, non, milliy taomlar va hunarmandchilik mahsulotlari turist uchun iqtisodiy qiymatga ega.

3. Sifat sertifikatsiyasi mavjud. Turist qaysi xo'jalik ishonchli ekanligini oldindan bilishi kerak.

4. Hududiy brend shakllantiriladi. Alohida fermer emas, butun hudud turist uchun yagona mahsulotga aylanadi.

5. Raqamli marketingdan foydalaniladi. Agroturistik obyektlar onlayn xaritalar, bronlash tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va maxsus platformalar orqali targ'ib qilinadi.

6. Ekologik barqarorlik ta'minlanadi. Suv, energiya, chiqindilar va yer resurslaridan oqilona foydalanish agroturizmning majburiy komponentiga aylanadi.

14 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agroturizmni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini bevosita ko'chirishdan ko'ra, ularning samarali mexanizmlarini mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, Italiya tajribasida fermer xo'jaliklarini turistik xizmatlar bilan integratsiyalash, Avstriyada qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirish, Ispaniyada esa gastronomik va madaniy turizm imkoniyatlaridan foydalanish agroturizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni qo'llash uchun, avvalo, fermer xo'jaliklari, turistik tashkilotlar, mahalliy hokimliklar va xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatining tabiiy-landshaft resurslari, tarixiy-madaniy merosi, milliy taomlari va qishloq xo'jaligi salohiyati agroturizmni hududiy rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy yo'nalishlar — qishloq hududlarida infratuzilmani yanada rivojlantirish, agroturistik xizmatlarni targ'ib qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarning salohiyatini oshirish — agroturizmning raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun muhim imkoniyatlar sifatida namoyon bo'ldi. Shu sababli raqamli marketing, onlayn bronlashtirish platformalari, elektron xaritalar va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, agroturizmni "yashil iqtisodiyot" tamoyillari bilan uyg'unlashtirish uning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish orqali nafaqat turistik jozibadorlikni, balki qishloq aholisining daromadlarini ham oshirish mumkin. Umuman olganda, xorijiy tajriba O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur modellarni hududlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish agroturizmni yanada samarali rivojlantirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, Qashqadaryo viloyatida agroturistik klasterlarni shakllantirish, raqamli marketingni kengaytirish va fermer xo'jaliklarini turistik xizmatlar tizimiga faol jalb etish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agroturizm hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, qishloq aholisi bandligi va daromadlarini oshirish hamda turizm xizmatlari diversifikatsiyasini ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Xorijiy mamlakatlar, xususan, Italiya, Avstriya va Ispaniya tajribasi agroturizmni qishloq xo'jaligi, turizm, gastronomiya va mahalliy madaniyat bilan integratsiyalash orqali yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samaraga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribani hududlarning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlariga moslashtirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jaligi salohiyati, tabiiy landshaftlari, milliy urf-odatlar va gastronomik imkoniyatlari agroturizmni rivojlantirish uchun yetarli resurs bazasini shakllantiradi. Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududiy agroturistik klasterlarni tashkil etish. Fermer xo'jaliklari, mehmon uylari, turistik firmalar, hunarmandchilik subyektlari va mahalliy hokimliklar faoliyatini yagona agroturistik tizimga birlashtirish maqsadga muvofiq.
2. Raqamli marketingni rivojlantirish. Agroturistik obyektlarning yagona elektron platformasini yaratish, onlayn bronlashtirish, GPS-xaritalash va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibotni kuchaytirish zarur.
3. Fermerlarni agroturistik faoliyatga jalb qilish. Fermer xo'jaliklariga turistik xizmat ko'rsatish, mehmonlarni qabul qilish, qishloq xo'jaligi jarayonlarini namoyish etish va milliy gastronomik xizmatlarni tashkil etish bo'yicha amaliy ko'mak berish lozim.
4. Infratuzilmani yaxshilash. Qishloq hududlaridagi yo'l, transport, aloqa, sanitariya va joylashtirish xizmatlarini rivojlantirish agroturistik yo'nalishlarning jozibadorligini oshiradi.
5. "Yashil agroturizm" tamoyillarini joriy etish. Ekologik toza mahsulotlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan agroturistik obyektlarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Umuman olganda, agroturizmni xorijiy tajriba asosida rivojlantirish O'zbekistonda qishloq hududlarining iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va turizm xizmatlari eksportini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Buning uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xususiy sektor tashabbuslarini rag'batlantirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. FAO. Inter-country learning dialogue on agritourism as opportunity for agrifood systems transformation. 2024.
2. FAO. Culture, cuisine and countryside: Harnessing the potential of agritourism to improve rural livelihoods. 2024.



3. FAO. The place of sustainable tourism in preserving agricultural sites. 2020.
4. OECD. OECD Tourism Trends and Policies 2026. OECD Publishing, 2026.
5. MASAF. Agriturismo: vivere la campagna. Italian Ministry of Agriculture.
6. Quendler E., Embacher H., Magnini V., Plaikner A., Stotten R. Austria under the auspices of global agritourism values: a narrative literature review. *Frontiers in Sustainable Tourism*, 2024.
7. Knežević M., Vujko A., Borovčanin D. Community-Centered Farm-Based Hospitality in Agriculture: Fostering Rural Tourism, Well-Being, and Sustainability. 2025.
8. Comparative analysis of alpine agritourism in Trentino, Tyrol and South Tyrol. *Open Agriculture*, 2022.
9. How tourists change farms: The impact of agritourism on organic farming adoption and local community interaction in the Tyrol-Trentino Mountain region. *Journal of Rural Studies*, 2024.
10. Qashqadaryo viloyati hokimligi. Turizm – eng tez daromad keltiruvchi soha. 2024.
11. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. Qashqadaryo viloyatida turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan loyihalar. 2026.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Turizm statistikasi.
13. Самиева, Г. Т., & Аликулов, Х. Т. (2023). НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ПЕРЕХОД В «ЗЕЛЕНУЮ ЭКОНОМИКУ». *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 994-998.
14. Samiyeva, G. T. (2022). Concepts of Poverty, Inequality and Social Exclusion. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 4 (3), 122-126. Retrieved from.
15. Khakimov, R., & Toxirovna, S. G. (2020). Agrarian Sector of the Republic of Uzbekistan in a Way of Development and Features of Enterprise Activity. *International Journal on Orange Technologies*, 2(10), 53-57.
16. Alikulov, K., & Tokhir, K. (2024). Milliy "yashil iqtisodiyot" taksonomiyasi. *THE INNOVATION ECONOMY*, 2(1).
17. Самиева, Г. Т. (2024). ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 1341-1345.
18. Aliqulov, H. (2023). YASHIL IQTISODIYOT. KELAJAK IQTISODIYOTING ASOSI. *Nashrlar*, 1(2), 474-477.
19. SAMIYEVA, G., & ALIQULOV, H. (2024). INNOVATION IQTISODIYOT. INNOVATION IQTISODIYOT Учредители: Каршинский государственный технический университет, 2(4), 26-34.
20. Samieva, G. T. ugli Alikulov, KT (2024). MINTAQADA "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MASALALARI. *THE INNOVATION ECONOMY*, 4(04).
21. Файзиева, Ш. Ш. (2023). Результаты и перспективы развития промышленности в регионах Узбекистана. *Экономика и социум*, (10 (113)-2), 811-817.
22. Samieva, G. (2025). "Yashil iqtisodiyot" asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'llari.
23. Aliqulov, H. (2026). Agroturizmni Rivojlantirish Asosida Qishloq Hududlarining Barqaror Iqtisodiy Va Ijtimoiy Taraqqiyotini Ta'minlash Asoslari. *GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT*, 4(6).
24. Toxirovna, S. G. (2023). Dehkan Farm-Services To Sustain Food Supply.
25. Samieva, G. T., & ugli Alikulov, K. T. (2024). MINTAQADA "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MASALALARI. *THE INNOVATION ECONOMY*, 4(04).
26. Samiyeva, G. T., & Xaydarov, B. I. (2022). The Importance of Self-Employment and Self-Reliance in Improving the Well-Being of the Population Self-Employment. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5).
27. Tohir o'g'li, A. H. AGROTURIZM-QISHLOQ HUDUDLARINI HARQAROR RIVOJLANTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHNING INNOVATION YO'LI.
28. Аликулов, Х. Т. кафедра «Инновационная экономика» Каршинский инженерно-экономический институт.
29. Toxirovna, S. G. (2021). Farmers-Food Sustainability Services. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 899-904.
30. Samiyeva, G. T. (2021). The Main Tasks Of Farms And Dekhkan Farms In Ensuring Productive Security In Uzbekistan. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27, 3897-3902.
31. Djurayev, B., Fayziyeva, S., Samiyeva, G., & Sultanov, B. (2024, June). Improvement of the modeling system of mineral fertilizer use efficiency in agriculture. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01002). EDP Sciences.
32. Samiyeva, G. T. (2023). Reform in the Field of Family Entrepreneurs in Reducing Poverty in Uzbekistan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>